

Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining XXXI sessiyasi bo'lib o'tdi



Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining XXXI sessiyasi bo'lib o'tdi
Sessiyada Xalq deputatlari shahar Kengashi deputatlari, shahar hokimi, sektor rahbarlari, hokim o'rgebnosarlari, tashkilot-korxona rahbarlari ishtirok etishdi. Sessiyani Termiz shahar hokimi Isroil Xudoyberdiev boshqarib bordi. Kun tartibida jami 9 masala muhokamaga qo'yilib ko'rib chiqildi. Birinchi masala yuzasidan Xalq ta'limi tizimida ta'lif sifatini yaxshilash borasida 2021 yilning 1-yarim yilligida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Termiz shahar Xalq ta'limi bo'limi mudiri O.Sadatov, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 avgustdagi PQ-3182-sonli va 2019 yil 8 yanvardagi PQ-4102-sonli qarorlariga asosan biriktirilgan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha 2021 yilning 1-yarim yilligida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida shahar sektor rahbarlari hisobotlari, xususan shahardagi 1-sektor rahbari o'rgebnosari M.Kenjaeva, "Saxovat va ko'mak" jamg'armasiga tushgan mablag'larni sarflash xarajatlari yuzasidan "Mahalla" xayriya jamoat fondi shahar bo'limi raisi A.Pardaev,

“Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarning bandligini ta’minlash, ularni kasb-hunarga va tadbirkorlikka o’qitish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida shahar hokimining o'rinnbosari K.Ashurov, O'zbekiston yoshlar ishlar agentligi shahar bo'limi boshlig'i J.Salohiddinov va mutasaddi rahbarlarning hisobotlari tinglandi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi Termiz shahar bo'limi tomonidan 2021 yilning 5 oyi davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida Majburiy ijro byurosi Termiz shahar bo'limi boshlig'i kengashga axborot berdi.

Sessiyaga qo'yilgan yuqoridagi masalalar yuzasidan deputatlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining qarorlari qabul qilindi.